

MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMIY-MA‘RIFIY MEROSI

Anvarova Muslimaxon Dilshodbek qizi
Andijon davlat chet tillar instituti talabasi
Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Ulug‘bekning eng muhim asari — Ziji Ko‘ragoniy bo‘lib, bu astronomik jadval yulduzlarning joylashuvi, sayyoralar harakatlari va boshqa osmon hodisalarini o‘ta aniq tarzda o‘z ichiga oladi. Ushbu asar Sharq ilm-fan tarixida muhim o‘rin egallab, ko‘plab zamonaviy ilmiy ishlanmalarga asos bo‘ldi. Ulug‘bekning ilmiy merosi orqali O‘rta Osiyoda o‘rta asrlarda yuqori darajadagi ilmiy yutuqlarga erishilganligi e‘tirof etiladi.

Kalit so‘zlari: Mirzo Ulug‘bek, Temuriylar, astronomiya, rasadxona, yulduzlar, osmon hodisalari, sharq va G‘arb ilm-fani, o‘rta asrlar, Ilmiy tadqiqot, davlat arbobi.

Аннотация: Важнейший труд Улугбека - "Зиджи Корagoonий", эта астрономическая таблица содержит очень точное описание положений звезд, планет и других небесных явлений. Три работы заняли важное место в истории восточной науки и стали основой многих современных научных разработок. Благодаря научному наследию Улугбека было признано, что в средние века в Средней Азии были достигнуты высокие научные исследования.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Тимуриды, астрономия, обсерватория, звезды, небесные явления, Восточная и Западная наука, Средние века, Научные исследования, государственный деятель.

Abstract: Ulugbek's most important work is Ziji Koragooniy, this astronomical table contains the positions of stars, the movements of planets and other celestial phenomena in a very precise way. This work occupied an important place in the history of Eastern science and became the basis for many modern scientific developments. Through the scientific heritage of Ulugbek, it is recognized that high-level scientific achievements were achieved in the Middle Ages in Central Asia.

Key words: Mirzo Ulugbek, Timurids, astronomy, observatory, stars, celestial phenomena, Eastern and Western science, Middle Ages, Scientific research, statesman.

Kirish. Mirzo Ulug‘bek, 1394- yilning 22- marida Amir Temur saltanatida qishki chorbog‘I , hozirgi Eronning Sultoniya shaxrida tavallud topgan , 1449- yil 27-oktabrda Samarqandda vafot etgan.. To‘liq ismi –Muhammad Tarag‘ay Shohruh o‘g‘li . Ulug‘bek unga bobosi Amir Temur tomonidan berilga taxallusdir. U Amir Temurning nabirasi bo'lib, o'zining hukmdorlik davrida (1425-1449) ilm-fan va madaniyatni

rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyati nafaqat uning shaxsiy yutuqlari, balki o'z davrining ilmiy va madaniy muhitida ham ulkan o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

Ulug'bek ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni o'z hayotining asosiy maqsadi sifatida belgilab, Samarqandni o'z davrining ilm-fan markaziga aylantirdi. Uning tasavvuriga ko'ra, ilm-fan va ma'rifat, insoniyatning taraqqiyoti va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Shuning uchun u o'z asrining eng mashhur olimlarini bir joyga to'plab, ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirdi.

Ulug'bekning ilmiy faoliyati, avvalambor, astronomiya sohasida namoyon bo'ldi. U o'zining maxsus observatoriyasini tashkil etib, yulduzlarni kuzatish va ularning harakatlarini o'rganishga katta ahamiyat berdi. Ushbu observatoriya o'z davrida eng ilg'or ilmiy muassasalardan biri bo'lib, unda yulduzlarni kuzatish va astronomik tadqiqotlar olib borish uchun eng zamonaviy vositalar ishlatilgan. Ulug'bekning bu sohadagi asari "Zij" deb nomlanadi. Bu asar, o'z ichiga yulduzlarning aniq joylashuvini va harakatini ko'rsatuvchi jadvallarni olgan holda, nafaqat o'z zamonida, balki keyinchalik ham astronomiya ilmida muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Ulug'bek ta'limga bo'lgan e'tibori va o'z madrasalarida ilg'or ilmiy g'oyalarni o'qitishga qaratgan yondashuvi bilan ajralib turadi. U o'z atrofida eng yirik olimlarni to'plab, ularga ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratdi. Bu, o'z navbatida, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyotida yangi sahifalarni ochdi. Mirzo Ulug'bekning bilimga bo'lgan ishtiyoqi va ilm-fan uchun qilgan sa'y-harakatlari o'z davrining ko'plab yirik olimlarining ko'magida rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ulug'bek o'ta bilimli va qattiqqo'l ustozlar tarbiyasida voyaga yetgan. Uning bolaligi asosan Amir Temur saltanatining g'arbiy hududida, hozirgi Eronning Sultoniya shahrida o'tgan.

Ulug'bek yoshligidan ilm o'rganishdan tashqari chavandozlik, qilichbozlik, kamon otish, suzish kabi jismoniy mashqlar bilan faol shug'ullangan. U qat'iy kundalik tartibga o'rgatilgan, diniy va dunyoviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan. Shu sababli xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lgan, irodasi chiniqqan. Arab, fors, turk, mo'g'ul, xitoy tillarini mukammal o'rgan gan. Qur'onni yetti xil qiroatda yod olgan.

Amir Temur nabirasini o'zi bilan olib yurishni odat qilgan. Uning aslzodalar odatlarini puxtaroq egallashi uchun sharoit yaratib, xos mehmonlarni rasmiy kutib olish marosimlarida ishtirok etishiga alohida ahamiyat bergan. Ulug'bek yoshligidan ulug' sarkardaning yonida yurib, saltanat manfaatlarini idrok etish va himoya qilish sirlarini o'rganib borgan. O'n bir yoshli Muhammad Tarag'ay hatto bobosining vafoti payti ham uning yonida bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek o'z hayoti mobaynida adolat sizliklarga, cheklashlarga, toj-u taxt talashishlardagi xiyonatlariga juda ko'p duch kelgan. Mirzo Ulug'bek bobosining vafotidan keyinoq boshlangan. Ulug'bek va Ibrohim Sulton Shohruhning farzandlari

bo'lgani uchun Shohruh dushmanlari ularni Samarqandga kiritmagan. Ular ilojsizlikdan Buxoro amaldorlaridan panoh so'ragan va bir muddat ularning himoyasida bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek kuchli tahliliy tafakkur sohibi bo'lib, murakkab matematik amallarni dilida bajara olgan. Ulug'bekning astronomik maktabi vakillaridan biri – G'iyosiddin Jamshid Koshiyning hayrat bilan yozishicha, kunlarning birida Ulug'bek ot ustida quyoshning balandligini vaqt birligida o'lchab, tushayotgan nurning tekislikka nisbatan og'ish burchagini trigonometrik usulda yoddan hisoblab chiqqan ekan.

Ulug'bek murakkab matematik tenglamalarni juda tez va o'ziga xos usulda epchillik bilan yecha olgan. U oliy madrasada talabalar uchun o'qigan tabiiy fanlarga oid ma'ruzalarida trigonometrik va sferik astronomiyaga oid hisob-kitoblarni ham yoddan hisoblay olish qobiliyatini ko'rsatgan. Bu mashg'ulotlarda Ulug'bek murakkab trigonometrik va algebraik masalalarni yechishda o'ziga xos usullar dan mahorat bilan foydalangani, qiyin matematik masalalarni yechishning xilma-xil usullarini yaxshi bilgani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ayniqsa, astronomik observatoriyada olib borilgan hisob-kitoblarda bu qobiliyati unga juda qo'l kelgan. Hozirgim zaon fani nuqtayi nazaridan ham bu hisob-kitoblar o'zining aniqligi bilan dunyo olimlarini hayratga solmoqda. Ulug'bek o'z shogirdlari bilan birga π soni va $\sin 1^\circ$ ning qiymatini juda katta aniqlikda hisoblab chiqqan.

Astronomik jadval tuzishdan oldin Ulug'bek observatoriyasida olib borilgan kuzatish natijalari umumlashtirilib, dastlabki hisob-kitoblarga o'zgar tirishlar kiritilgan va yetuk olimlar ishtirokida yakuniy xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, yulduzlar koordinatalarini to'g'ri aniqlashda observatoriyaning qulay imkoniyatlaridan samarali foydalangan olimlar Mirzo Ulug'bek rahbarligida quyosh yilining eng aniq qiymatini hisoblab chiqqan. Bu ko'rsatkich 365 sutka, 6 soat, 10 minut, 8 sekundga tengdir.

Hozirgi zamonaviy hisob-kitoblarga ko'ra, bu qiymat 365 sutka, 6 soat, 9 minut, 9,6 sekundga teng. Bu qadar aniq xulosani olishda ishlatilgan matematik, trigonometrik va astronomik usullar hanuzgacha jumboqligicha qolmoqda. Mirzo Ulug'bekning aqliy qobiliyati, xususan, mantiqiy fikrlash tarzi ham nihoyatda kuchli bo'lgan. Mirzo Ulug'bek uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida matematika, astrono miya, tarixga oid asarlar yaratgan. Biroq bizgacha mutafakkirning to'rt asari: "Ziji jadidi Ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvallari"), matematikaga oid "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", astronomiyaga doir "Risolayi Ulug'bek" va "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") yetib kelgan.

1445-yili yozilgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari allomani dunyoga mashhur qiladi. Kishilik tarixida yaratilgan yulduzlar jadvallari orasida eng mukammali hisoblangan mazkur "Zij" hozirgacha ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagani bilan qimmatlidir. Dast labki yulduzlar jadvali Ptolemeyga (vaf. 170) mansub bo'lib,

milodning II asrida Iskandariya shahrida tuzilgan. Bu jadvalda 1029 ta yulduzning koordinatasi berilgan. Undan sakkiz yuz yil keyin Sherozda Abdurahmon So‘fiyning (901-986) “Turg‘un yulduzlar suratlari” nomli jadvali tuziladi. Bu jadvalda 1017 ta yulduz ko‘rsatilgan. 1437-yili tuzilgan Ulug‘bek jadvalida esa 1018 ta yulduzning aniq koordinatasi berilgan bo‘lib, bu katalog asrlar davomida dengizchilar uchun geografik koordinatalarni aniqlashda eng ishonchli manba bo‘lib kelgan.

Ta’kidlanganidek, Ulug‘bekning ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda. Alloma kashf qilgan kuzatish astronomiyasining tadqiqot metodlaridan hozirgi zamon astronomiya fani muhim asos sifatida foydalanmoqda. Uning rahbarligida ishlab chiqilgan astronomik jadvallar Yevropada yangi davr sivilizatsiyasi uchun g‘oyat ahamiyatli tayanch bo‘lib xizmat qildi. Yaqin-yaqingacha okeanlar osha sayohatga chiqqan kemalar ham, bepoyon sahrolarni bosib o‘tuvchi karvonlar ham Ulug‘bekning jadvalaridan vaqt va geografik koordinatalarni aniqlashda keng foydalangan. Mirzo Ulug‘bek 1409-1449-yillar davomida uzluksiz ravishda Movarounnahrni boshqargan. Hukmronlik davrida o‘z atrofiga salohiyatli ilm ahlini to‘plagan. Ularning boshini biriktirib, astronomiya, matematika, mantiq, tarix, falsafa va boshqa fanlar bo‘yicha yirik ilmiy maktab, hozirgi zamon tili bilan ifodalaganda, akademiya faoliyatiga rahbarlik qilgan. Bu maktabda Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi taniqli olimlar ta’lim bergan. Shuningdek, u yerda Amir Temur davrida faoliyat olib borgan olimlarning falsafa, mantiq, tarix, geografiya va boshqa sohalarga oid ilmiy an‘analari davom ettirilgan.

Ayni paytda Ulug‘bek turkiy xalqlarning ma’naviy merosini o‘rganish, qimmatbaho yozma yodgorliklarni qayta ko‘chirib, xalq orasida targ‘ib qilish, tarixiy xotirani tiklash masalalariga jiddiy e’tibor qaratgan. Madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, maqbaralar qurdirgan. Samarqandning muhtasham Registon maydonidagi Ulug‘bek madrasasi ana shunday xayrli va ezgu sa’y-harakatlarning porloq natijalaridan biridir.

Ulug‘bek madrasani shunchaki qurdirmagan, balki bu ishga hayotida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirdek yondashgan. Tarixchi Zayniddin Vosifiyning so‘zlariga ko‘ra, Ulug‘bek madrasa qurilishining har bir bosqichini shaxsan nazorat qilib borgan, hatto bino bitgach, kim mudirlik qilishi, kimlar dars berishi, mudarrislar qanday bilim va malaka talablariga javob berishi lozimligini aniq belgilab bergan. Ahamiyatlisi, Ulug‘bekdan keyingi davrlarda ham bu madrasa boshqaruviga mas’ulni tayinlash masalasini Samarqand hukmdorlari hal qilgan. Xususan, Bobur mirzo Samarqandni egallaganida, uning zimmasiga shunday mas’uliyatli vazifa tushgan.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek butun umrini temuriylar saltanatini mustahkamlashga, jamiyatni barqaror va farovon qilishga, mamlakatda ilm-ma’rifat tantana etishiga, astronomiya ilmini insonlar uchun xizmat qildirishga bag‘ishlagan. U Buxoro (1417), Samarqand (1420) va G‘ijduvonda (1433) oliy ta’lim beruvchi

madrasalar bino etgan, ko'priklar, yo'llar qurdirgan. Madrasalardagi ta'lim jarayoniga dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan taniqli olimlarni jalb etgan.

Uning hukmronlik yillarida Movarounnahr iqtisodiy jihatdan gullab-yashnagan, hunarmandlik rivojlangan. Bu esa qog'oz, gazlama, rangli shisha va boshqa yuqori texnologik mahsulotlarni Buyuk ipak yo'li bo'ylab uzoq xorij mamlakatlariga chiqarish imkonini bergan.

Mirzo Ulug'bekning uzoq yillik hukmronligi davrida mamlakatda ommaviy norozilik harakatlari kuzatilmagani uning adolatli va mohir davlat arbobi bo'lganidan dalolatdir. 1428-1429-yillarda pul islohoti o'tkazilib, qiymati baland yangi mis tangalar muomalaga kiritiladi. Amalga oshirilgan soliq islohoti natijasida yer solig'i miqdori kamaytirilib, savdo hunarmandlik mahsulotlaridan olinadigan "tamg'a" solig'i hajmi bir qadar oshiriladi. Mashhur shoir va adib Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485-1566)ning yozishicha, Mirzo Ulug'bek haftaning bir kunida fuqarolarni shaxsiy iltimoslari bo'yicha qabul qilib, ularning muammolarini hal qilgan.

Mirzo Ulug'bek Samarqandda faoliyat yuritayotgan ko'pgina olim va mudarrislar, minglab madrasa talabalarini moddiy qo'llab-quvvatlash uchun yiliga 30 ming tilla dinor mablag' ajratgan.

Ushbu davrda Samarqandda 500 nafar talaba matematikaga ixtisoslashgan 12 ta maktabda o'qi tilgan, matematika fani misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etgan. Mirzo Ulug'bek olimlar hamrohligida haftada bir necha marta Samarqandda o'zi qurdirgan madrasaga tashrif buyurib, mashg'ulotlarni kuzatishni odat qilgan. Bo'sh vaqt topildi deguncha ilmiy asarlar mutolaa qilishni xush ko'rgan. Kitobda ko'tarilgan masalalarni olimlar bilan muhokama qilgan. Mirzo Ulug'bek matematikani shu darajada chuqur bilganki, ilmiy muhokamalarda hech kim uning so'zini bo'lishga haddi sig'magan. Ulug'bek madrasasi mudarrisleri mashg'ulotlarga tuni bilan tayyorgarlik ko'rib, minglab usul va vositalar yordamida dars olib borgan.

Mirzo Ulug'bek astronomiya va matematikaga oid ilmiy yangiliklarni eshitishni xush ko'rgan. Jahonning qaysi mamlakatida ushbu fanlarga doir kashfiyot bo'lsa, uni o'rganib, faoliyatiga tatbiq etishga ishti yoqmand bo'lgan. Ittifoqo Yusuf Xalloy ismli shaxs ning o'g'li Misr, Shom o'lkalarida bo'lib, astronomiya bo'yicha yangi uskunalarni Samarqandga keltiradi. Ulug'bekka "zarqala" nomli astronomik jihoz taqdim etadi. Alloma hukmdor o'z olimlariga "zarqala"ni diqqat bilan o'rganish bo'yicha topshiriq beradi.

Ziji jadidi Ko'ragoniy" ("Ko'ragoniy yangi astronomik jadvali"), "Ulug'bek ziji" — Samarqand yaqinidagi rasadxonada Mirzo Ulug'bek rahbarligida yaratilgan (1437) ilmiy asar. Ikki bo'limdan (batafsil yozilgan muqaddima va vaziyatlari elliptik sistemada berilgan 1018 ta yulduzning jadvalidan) iborat. Muqaddima 4 qismga ajratilgan. Iqism — xronologiyada Sharq xalqlarining yil hisoblash usullari bayon qilingan. Arab, yunon, eron, xitoy va uyg'urlarda yil hisoblash tartiblari, bularning

biridan ikkinchisiga o'tish yo'llari va u xalk,larning o'ziga xos milliy bayramlarini hisoblash usullari ifodalangan. 2qism amaliy astronomiya masalalariga bag'ishlangan. Bunda ekliptika va ekvator orasidagi burchakni aniklash, osmon jismlarining koordinatalarini topish usullari, meridian chizig'ini o'tkazish, qibla azimutini aniqlash, geografik koordinatalarni topish, yil davomiyligini aniklash va osmon sferasida differensial o'lchashlar o'tkazish masalalari yoritilgan. 3qismda sayyoralarning ko'rinma harakatlari geotsentrik sistema asosida sharhlangan. 4qismda goroskop haqida ma'lumotlar (qarang Astrologiya) keltiriladi. "3. K."da keltirilgan yulduzlar jadvali Samarqandda olib borilgan kuzatishlar asosida tuzilgan. Jadval yulduzlar soni va kuzatishlarning originalligi jihatdan astronomiya tarixida Gipparx — Ptolemey jadvalidan keyin (2-asr) ikkinchi o'rinda turadi. Optik asboblar ixtiro qilinguniga qadar tuzilgan zijlar orasida "3. K." eng mukammal hisoblanadi. Undan vaqtni aniklash va geografik koordinatalarni o'lchashda, shuningdek, turli astronomik masalalarni hal qilishda 17-asrga qadar Sharqda va Yevropada foydalanib kelindi. Asarda boshqa jadvallar ham bor. 683 ta punkt uchun geografik koordinatalarni o'z ichiga oluvchi jadval, asosan, turli manbalardan foydalanib tuzilgan. Sinus va tangeslarning trigonometrik jadvallari Samarqand olimlari ishlab chiqqan yangi usullar yordamida hisoblangan; ular o'sha davrga qadar hisoblangan jadvallarga nisbatan ancha aniq.

"3. K." fors tilida yozilgan; keyinchalik, arab va turk tillariga tarjima qilingan. Ulug'bekning shogirdi Ali Kushchi zij qo'lyozmalarining keng tarqalishiga katta hissa qo'shdi.

"3. K." Yevropada birinchi marta 1648-yilda (Angliya) nashr qilindi; keyinchalik, ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilindi. "3. K."ning qo'lda ko'chirilgan nusxalari Angliya, Fransiya, Turkiya va Hindiston kutubxonalarida, fors tilida yozilgan eng eski nusxalaridan biri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik intida saqlanadi.

Ziji jadidi Ko'ragoniy" Ulug'bek ziji yoki "Ziji sultoni" - Mirzo Ulug'bek tomonidan 1437-yilda nashr etilgan astronomik jadvaldir. Ptolemey va Tycho Brahening ishlari safida, eng buyuk yulduz kataloglari qatorida turadi. Mirzo Ulug'bekni XV asrdan beri Yevropa va Amerikada ham, Osiyoda ham yaxshi bilishadi. XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida Yevropada astronomiya fanining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi yevropaliklarning Samarqand akademiyasiga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Shogirdi Ali Qushchining Ulug'bek asarlarini Turkiyada targ'ib etganligi natijasida yevropaliklar uning fan taraqqiyotiga qo'shgan kashfiyotlaridan bahramand bo'ldilar.

Hozirgi kunda «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asarining 150 dan ortiq nusxasi ma'lum. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, asarning 120 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi ham mavjud. Mirzo Ulug'bekni davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lishdan ko'ra ko'proq ilmu fan bilan shug'ullanish qiziqtirgan. Uning «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risolai Ulug'bek», «To'rt ulus tarixi», «Ziji jadidi

Ko‘ragoniy», «Ko‘ragoniyning yangi jadvallari» kabi asarlari dunyo olimlari tomonidan hali hanuz o‘rganiladi. Ulug‘bekning «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» asari «Ulug‘bek ziji», «Ziji Ko‘ragoniy» kabi nomlar bilan ham ataladi. «Zij» so‘zi fors tilidagi «zik» so‘zidan olingan bo‘lib, «jadval» ma‘nosini bildiradi. Mazkur asar Ulug‘bekning qariyb 30 yillik izlanishi samarasi bo‘lib, u 1444 yilda yozib tugatilgan. Asar fors tilida bitilgan, keyinchalik G‘iyosiddin Al-Koshiy tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» muqaddima va to‘rt maqoladan iborat.

Birinchi maqola so‘zboshi va 7 bobdan, ikkinchi maqola 22, uchinchi maqola 13, «Zij»ning so‘ngi – to‘rtinchi maqolasi esa to‘laligicha ilmi nujumga bag‘ishlangan bobdan iboratdir. 1638 yili ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universiteti professori Jon Grivs Istanbulga keladi. U o‘zi bilan Angliyaga asarning bir nusxasini olib ketadi. 1643 yildan boshlab Jon Grivs «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» asarini ilmiy tadqiq qilishni boshladi va Ulug‘bekning yulduzlar katalogidan olingan 98 ta yulduz holatini 1648 yili e‘lon qildi, aniqrog‘i, olimning mazkur ishi –Baynbridj tomonidan nashr qilindi. O‘sha yilning o‘zida u «Zij»ning geografiya qismini alohida nashr etdi. Keyinchalik esa u to‘rt qismdan iborat Ulug‘bek «Zij»i birinchi kitobining lotincha tarjimasini nashr qildi. 1652 yilda oxirgi ikkita ish qayta chop etildi.

Angliyalik sharqshunos olim va tarjimon, Oksforddagi Bodleyani kutubxonasining xodimi Tomas Xayd 1018 ta yulduz tadqiq qilingan «Ziji jadidi Ko‘ragoniy»ning yulduzlar jadvalini lotin va fors tillarida nashrga tayyorladi hamda «Ulug‘bek kuzatishlari bo‘yicha qo‘zg‘almas yulduzlarning (astronomik) kenglama va uzunlamalari jadvallari» nomi bilan nashr ettirdi. Tomas Xayd Grivsning «Zij» borasida olib borgan ilmiy ishlaridan bexabar bo‘lgan, bu esa Ulug‘bek asarining turli yo‘llar bilan Yevropaga kirib borganini ko‘rsatadi. J. Grivs va T. Xayd tomonidan Ulug‘bek «Zij»idagi jadvallarning nashr etilishi Yevropa astronomlari uchun ulkan voqea bo‘ldi, chunki astronomlarning yuqori aniqlikdagi yulduzlar jadvaliga ehtiyoji katta edi. Ana shu ehtiyoj va chanqoqlikni bosishda Ulug‘bekning «Zij»idek o‘z davrining mukammal asari muhim rol o‘ynadi. Mazkur asarning diqqatga sazovor jihati shundaki, kitobda keltirilgan rasmlarning ikkitasida vatandoshimiz Mirzo Ulug‘bekning siymosi aks ettirilgan. Rasmlarning birida Ulug‘bek osmon xudosi Uraniya raislik qilayotgan majlisda uning o‘ng qo‘l tomonida o‘tiribdi. Suratda yirik astronomlardan grek Ptolemey (er. av. taxminan 170 yili vafot etgan), italiyalik Jan Baptist Richchioli (1598 – 1671), daniyalik astronom Tixo Brage (1546 – 1601), polyak astronomi Yan Geveliy, nemis shahzodasi Gass (1532 – 1592) tasvirlangan.

Ikkinchi gravyurada Uraniyaning atrofini o‘rab turgan 10 nafar mashhur astronom huzuriga Yan Geveliy o‘zining yulduzlar katalogini taqdim etish uchun tashrif buyurgan holat tasvirlangan. Mirzo Ulug‘bek va u tashkil etgan akademiyaning G‘arbiy Yevropada qanchalik mashhur bo‘lganini Yan Geveliyning «Astronomiya darakchisi» asarida bitilgan gravyuralardan ham bilish mumkin. 1711 yili Oksfordda

Ulugʻbekning geografik jadvali qayta nashr etildi. Mazkur jadval yunon tilida ham chop etilgan. Pyotr I zamonida Ulugʻbekning «Zij»i Rossiyada ham chop etilgani tarixiy faktidir. Bu ishni yosh nemis olimi, Rossiya tashqi ishlar kollegiyasi aʼzosi G.Ya.Ker amalga oshirdi. U Ulugʻbek «Zij»ining faqat soʻzboshisini fors tilidan lotin tiliga tarjima qilib, nashr etdi. Bu ishga uni Parij observatoriyasidan Pyotr I ning taklifiga koʻra, Peterburg Fanlar akademiyasiga ishga kelgan astronom Jozef Nikola Delil undagandi. J.N.Delil Peterburgga kelishdan oldin Rossiya astronomiyasini rivojlantirish boʻyicha maxsus dastur ishlab chiqqan edi. Mazkur dasturni amalga oshirish yoʻlida Sharq astronomiyasi erishgan yutuqlarni yaxshi oʻrganish lozimligini toʻgʻri anglagan olim, bu ishga G.Ya.Ker va Peterburgda yashayotgan gruzin shohi, fors tilini yaxshi egallagan Vaxtang VI ni ham taklif etadi. Vaxtang VI Rossiyaga kelguniga qadar oʻz kotibi M.Kavkasidze bilan birgalikda «Ulugʻbekning astronomik jadvallari»ning forschadan gruzin tiliga tarjimasini boshlagan edi. Keyinchalik bu tarjima Peterburgda nihoyasiga yetkazildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil may oyida chiqargan qaroriga asosan, mamlakatimizda Mirzo Ulugʻbekning 600 yillik toʻyi 1994 yilda keng nishonlandi. Bu yil esa ulugʻ olim va davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temurning suyakli nabirasi Mirzo Ulugʻbek tavalludiga 627 yil toʻldi. Ulugʻbekning hayoti va yaratgan asarlariga boʻlgan qiziqish hech bir zamonda soʻnmagan. Uning qalamiga mansub boʻlgan asarlardan biri — «Ziji jadidi Koʻragoniy» asari tarixiy ahamiyatga molikdir.

Xulosa: Mirzo Ulugʻbek oʻzining qiyinchiliklariga qaramay, ilm-fan va taʼlim sohalarida buyuk yutuqlarga erishgan shaxsdir. Uning Samarqandda qurilgan observatoriyasi va yaratgan "Zij" asari, oʻz davrining eng ilgʻor astronomik tadqiqotlari hisoblanadi. Ulugʻbek, birinchi boʻlib, yulduzlarning aniq roʻyxatini tuzib, astronomiyaning asoslarini mustahkamladi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI. Website: [tma:uz](http://tma.uz)> uploads >2024/04
- 2- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY –TADQIQOT MARKAZI. Website: [tma:uz](http://tma.uz)> uploads>2024/04
- 3- Kari Niyazev T. N., Astronomicheskaya shkola Ulugbeka, Izbr. Trudi, t. 6, T., 1967; Geveliy Ya n, Atlas zvyozdnogo neba, T., 1970.
- 4- Ziji jadidi Koʻragoniy haqida www.ziyouz.com saytida.